

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH SIFATINI
JADALLASHTIRISHGA OID METODIK USULLAR USTIDA ISHLASH

Yuldasheva Mahliyoxon Maxammadrasulovna

Andijon viloyati Buloqboshi tumani

24-maktab boshlang'ich sinf o'quvchisi

Annotatsiya: Bu ilmiy maqola boshlang'ich sinflarda o'qish sifatini jadallashtirishga oid metodik usullar ustida ishlash mavzusiga bag'ishlangan. Maqola boshlang'ich sinflarda o'qish jarayonini mustahkamlash va o'quvchilarning nutqiy faoliyatining rivojlanishiga yordam berish uchun foydali bo'lishi maqsadida yozilgan. Maqola boshlang'ich sinflarda o'qish sifatini jadallashtirishga oid metodik usullar ustida ishlashning o'quvchi rivojlanishi va o'quvchi muvofiqlik darajasini oshirishda muhimligini ta'kidlaydi. Bu metodik usullar bilan o'qish jarayonini takomillashtirishi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: To'g'ri, tez, ifodali va ongli o'qish, metodik usullar, o'qish tezligini tatbiq etish, ifodali nutqi, puxta o'zlashtirish.

Abstract: This scientific article is devoted to the topic of working on methodical methods for accelerating the quality of reading in primary grades. The article was written in order to be useful for strengthening the learning process in primary grades and helping the development of students' speech activity. The article emphasizes the importance of working on methodical methods for accelerating the quality of reading in primary grades in increasing the level of student development and student compliance. It is important because it improves the learning process with methodical methods.

Key words: Correct, fast, expressive and conscious reading, methodical methods, implementation of reading speed, expressive speech, careful acquisition.

Аннотация: Данная научная статья посвящена теме работы над методическими приемами повышения качества чтения в начальных классах. Статья написана для того, чтобы быть полезной для укрепления учебного процесса в начальных классах и помочь развитию речевой деятельности учащихся. В статье подчеркивается важность работы над методическими приемами ускорения качества чтения в начальных классах в повышении уровня развития учащихся и их успеваемости. Это важно, поскольку улучшает процесс обучения с помощью методических методов.

Ключевые слова: Правильное, быстрое, выразительное и осознанное чтение, методические приемы, реализация скорости чтения, выразительная речь, внимательное усвоение.

Boshlang'ich sinflarda o'qitilayotgan o'qish darslari yuqori sinflarda o'tiladigan adabiyot fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. O'qish darslarida o'tkaziladigan mashg'ulotlar mazmuni, o'quvchilarni to'g'ri, ravon, ma'lum darajadagi tezlik bilan ifodali o'qishga o'rganishi, bolaning ona Vatan, uning tabiatini kishilar mehnatidagi qahramonlik,

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

jasurlik, milliy istiqlol g'oyalarini ular ongiga singdirilishi kabi bilimlarini boyitish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari kengaytiriladi, shakllanadi va mustahkamlanadi. O'qish darslarini Davlat standarti talablari asosida hayotiy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib, hayotga bog'lab o'tilishi uning ta'sirchanligi hamda ongli idrok etishlarini ta'minlaydi. Unda o'qish va nutq o'stirishning ta'limiy-tarbiyaviy maqsadlari, sinflar bo'yicha o'qish mazmunini o'qish ko'nikmalarining og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish usullarini, o'qish mashg'ulotlarining yozma nutq bilan bog'lanish kabi masalalar aniq kiritilgan.

Tez o'qish. O'qish sifatlarini yaxshi o'zlashtirgan holda o'quvchilarining o'qish sur'ati birbiridan farq qiladi. Bu dastur talablarini bajarmadi, degan gap emas. Og'zaki nutq tempiga to'g'ri keladigan o'qish sur'ati normal tezlik hisoblanadi. Chunki o'ta tez ham, o'ta sekin o'qish ham matn mazmunini o'zlashtirishni qiyinlashtiradi.

O'qish tezligi bir daqiqada o'qiladigan so'zlar soni bilan belgilanadi. 2005-yilda e'lon qilingan o'qish dasturida 1-sinfning 2-yarim yilligida o'qish sur'ati 2025 so'z (notanish matnni o'qish tezligi ham 2025 so'z); o'quv yili oxirida 2530 so'z; 2- sinfning 1-yarim yilligida matnni o'qish tezligi 3035 so'z; 2-yarim yilligida 4050 so'z; 3- sinfning 1-yarim yilligida 6070 so'z; 2-yarim yilligida 7080 so'z; 4- sinfning 1-yarim yilligida ichda ovozsiz 110130 so'z, ovozli o'qishda 90100 so'z deb belgilangan. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bir daqiqada bola 250 so'zli matnni o'qisa, undagi 200 ta so'zni eslab qolar ekan. Agar harflab, bo'g'inlab o'qisa, uning diqqat markazida so'z emas, bo'g'in bo'ladi. Natijada u so'zlarni eslab qola olmaydi. Bu 4-sinf o'quvchilarining o'qish tezligiga tatbiq etilsa, 145 so'zdan 100 so'zni eslab qoladi. Bu esa yuqori ko'rsatkichlarga erishish imkonini beradi. 4-sinfda bir daqiqada 170, 180 ta so'z o'qiydigan o'quvchilar ham bor. O'qish tezligi to'rt yil davomida to'g'ri va ongli o'qish bilan bog'liq holda asta ortib boradi. O'qish tezligini tekshirganda o'qituvchi o'qiladigan materialning xarakterini, ya'ni g'oyaviy mavzuviy murakkabligini, so'z va gaplarning tuzilishini, ularning bolalar nutqida qay darajada ishlatilishini, o'qishning to'g'ri va ongli bolishini hisobga oladi. O'quvchilarining o'qish tezligi har xil bo'ladi, albatta. O'qituvchining vazifasi barcha o'quvchilarining o'qish tezligini, iloji boricha bir xillikka keltirishdan iborat. O'qish sur'atini oshirishda tez aytishlarni, maqollarni yod oldirish va matnni ovoz chiqarib o'qishni mashq qilish kabilar samarali usullardan hisoblanadi.

Ongli o'qish. Ongli o'qish yaxshi o'qishning asosiy sifati hisoblanadi. Ongli o'qish o'qilgan matnning aniq mazmunini, asarning g'oyaviy yo'nalishini, obrazlarini va badiiy vositalarining rolini tushunib o'qish, shuningdek, asarda tasvirlangan voqealarni hodisalarga o'z munosabatini ifodalay olishdir. Ongli o'qish o'z navbatida, o'quvchilarining zarur hayotiy tajribasiga, so'zning leksik ma'nosini, gapda so'zlarning bog'lanishini tushunishga va bir qator metodik shartlarga bog'liq. Hozirda ongli o'qish atamasi adabiyotlarda va maktab tajribasida ikki ma'noda: birinchidan, o'qish jarayonini egallashga nisbatan o'qish texnikasi ma'nosida, ikkinchidan, keng ma'nodagi o'qishga nisbatan o'qish sifatlaridan biri ma'nosida qo'llanadi. Matnni ongli o'qish uchun o'quvchilar to'g'ri, me'yorida o'qishni egallagan bo'lishlari va o'qish jarayonida qiyalmasligi talab etiladi. O'quvchilar matnni ongli o'qishlari uchun matn mazmuni va badiiy vositalari jihatidan tahlil qilinadi. Ongli

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

o'qishning muhim sharti asar qurilishi va mazmunini tushunish hisoblanadi. O'qituvchi ongli o'qishni matnni ifodali o'qishga (agar ovoz chiqarib o'qilsa) va asar mazmuni yuzasidan berilgan savollarga javobning to'g'rilinga, asar voqealari va qahramonlarning xattiharakatiga bildirgan munosabatiga qarab baholaydi. Ongli o'qish va ifodali o'qish bir-birini taqozo qiladi, ammo bir-biriga aynan o'xshamaydigan o'qish sifatlaridir.

Ifodali o'qish. Ifodali o'qish intonatsiya ohang yordamida asarning g'oyasi va jozibasini to'g'ri, aniq, yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilishdir. Ifodali o'qish adabiyotni aniq va ko'rgazmali o'qitishning dastlabki va asosiy shaklidir", deb ta'kidlaydi metodist olima M.A.Ribnikova. Demak, Ifodali o'qishning asosiy vazifasi asarning mazmunini va emotsionalligini intonatsiya orqali o'quvchilarga ko'rgazmali qilib ko'rsatishdir. Ifodali o'qishning asosiy tamoyili o'qiladigan asar g'oyasi va badiiy qimmatini chuqur tushuntirishdir.

Intonatsiya (ohang). Intonatsiya og'zaki nutqning birgalikda harakat qiluvchi elementlari: urg'u, nutq tempi va ritmi, pauza, ovozning past-balandligining yig'indisidir. Bu elementlar birbiriga ta'sir etadi va hammasi birgalikda asarning mazmunini, g'oyasini, qahramonlarning turli kayfiyatini, ichki kechinmalarini ifodalaydi.

Ifodali o'qishning asosiy vositalaridan bin ovozdir. Ovoz nafas bilan uzviy bog'lanadi. Shuning uchun o'qituvchi bolalarning ifodali nutqi ustida ishlashni talaffuz qilayotganda o'z nafasini boshqara olish va ovozdan to'g'ri foydalanishga o'rgatishdan boshlaydi. Ovoz kuchi baland-pastlik, uzun-qisqalik, tezlik (temp), yoqimli-yoqimsizlik xususiyatlari bilan xarakterlanadi. O'quvchilar matn mazmuniqa qarab, baland yoki past ovozda o'qish (gapirish)ga, nutqda tez, o'rtacha yoki sekin tempni tanlashga, biror tuyg'uni ifodalashga o'rganadilar. Ifodali o'qishga o'rgatishda o'quvchilar pauza va logik urg'u bilan ham tanishtiriladi.

Ifodali o'qish turli badiiy va amaliy matnlarni puxta o'zlashtirishning muhim metodlaridan biri sifatida o'qituvchi uchun kalit rolini bajaradi. Ifodali o'qish darslarda o'quvchilarning zerikishiga yo'l qo'ymaydi, aksincha, faollashtiradi, badiiy asarlarga qiziqishini kuchaytiradi, adabiyotga havasini uyg'otadi.


O'qish darslarida o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatishning, asosan, ikki yo'li mavjud:

1. Dars jarayonida turli matn xarakteridan kelib chiqib, o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish;

2. O'qish darslari materiallariga berilgan soatlarni qisqartirish hisobiga maxsus ifodali o'qish dasturlarini tashkil etish.

O'qish mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida o'quvchilar nutq faoliyatining asosiy ko'rinishi bo'lgan ko'nikmalari, matn va kitob ustida ishlash, o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish, nutq madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

1-sinfda o'quvchilar matnni ongli, to'g'ri va bo'g'inlab sidirg'ali o'qishni o'rganadilar. Ona tili va o'qish savodxonligi darslaridagina emas, balki barcha predmetlar yuzasidan o'tkaziladigan darslarda hamda darsdan va maktabdan tashqari uyshtiriladigan mashg'ulotlar jarayonida ham tuzatib borishga alohida ahamiyat berishi lozim. Bolalar



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

o'qilgan asarlar yuzasidan berilgan savollarga to'g'ri javob berishga o'rganadilar. Bilamizki, matn ustida ishslash o'qituvchi rahbarligida olib boriladi.

2-sinfda o'quvchilarga so'zlarni butunligicha sidirg'asiga o'qish malakasi shakllanadi. O'qishning to'g'ri, ifodali bo'lishiga erishiladi. O'qish sur'ati tezlashib boradi. Bu sinfda o'quvchilar matnning ayrim qismlarini, qisqa hikoyalarni mustaqil o'qishga o'tadilar. Matn ustida ishslash murakkablashib boradi. Bolalar o'qituvchi rahbarligida asarning asosiy mazmunini aniqlaydilar, qahramonlarning xatti-harakatini ifodalovchi so'z va iboralarni topishga, voqeа-hodisalarini so'z bilan tasvirlashga o'rganadilar. Ularda so'z boyligiga talab ortadi.

3-sinfda so'zlarni butunicha sidirg'a o'qish ko'nikmasi to'la shakllanadi. So'zlarni to'g'ri tanlashga, gap qurilishidagi so'zlarning bir-biriga bog'lanishidan to'g'ri foydalanishga talab etiladi.

4-sinfda o'quvchilar esa so'zlarni bo'g'inlamay sidirg'a o'qishlari, matnni tez, to'g'ri, ongli o'qiy olishlari kerak. Bu sinfda o'quvchilarni bo'g'inlab o'qishga yo'l qo'ymaslik kerak. Bolalar o'qilgan matn mazmunini mustaqil ravishda qayta hikoya qilishlari, matn yuzasidan sodda reja tuza olishlari, uning asosiy mazmunini ajrata olishlari va o'qilgan matnni to'la, qayta hikoya qilishlari kerak.

Maktabda o'qitiladigan eng muhim predmetlardan biri bu o'qishdir. O'qish o'quvchi faoliyatining asosiy turi bo'lib, o'quvchilarni g'oyaviy-siyosiy, aqliy, estetik va nutqiy tomondan rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Bu jarayon esa o'qish malakalarini takomillashtirish va o'stirish ustida tizimli va maqsadli ishslashni talab qiladi.

O'qish savodxonligi darslarida asar ustida ishslashni shunday tashkil etish kerakki, asar mazmunini tahlil qilish o'qish malakalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lsin. Bundan tashqari, sinfdan va maktabdan tashqari ishchlarni ham reja asosida olib borish va unda badiiy asarlar tahlilini qilish ham ko'p foyda beradi. Hozirda bolalar uchun qiziq bo'lgan rasmi, qiziqrarli kitoblar nashr etilmoqda, o'qituvchi bola yoshidan kelib chiqib uyda qo'shimcha o'qish uchun topshiriqlar berishi ham katta samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1. Qosimova K, Matchonov S. Ona tili oqitish metodikasi. Toshkent: Noshir, 2009.
2. Toirova M. Oqish savodxonligi. Darslik. 3-sinf Toshkent: Novda Eduatainment, 2023
3. Normatova M. PIRLS xalqaro baholash dasturining talim tizimidagi orni va ahamiyati // Pedagog.uz. 3-son, 2020.
4. Talim inspeksiyasi huzuridagi Talim sifatini baholash boyicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. –Toshkent, 2019.
5. Jamolxonov H. Ozbek tilining nazariy fonetikasi. Toshkent: Fan, 2009.

